

Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**THEORY AND PRACTICE OF COMMUNICATIVE SPEECH QUALITY****Muborak Khaydarova***Philology and language teaching: Uzbek language Student**Termez State University*xaydarovam@gmail.com*Termez, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: speech, purity of speech, dialectism, barbarism, vulgarism, clericalism, parasitic words, jargon and argot.

Received: 24.11.25**Accepted:** 25.11.25**Published:** 26.11.25

Abstract: this article will talk about the quality of purity, which is considered one of the communicative qualities of speech, and the factors that undermine it (dialectism, barbarism, vulgarism, clericalism, parasitic words, jargon and argo), as well as their importance in artistic and colloquial style.

NUTQNING SOFLIK KOMMUNIKATIV SIFATIGA DOIR NAZARIYA VA AMALIYOT**Muborak Xaydarova***Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili talabasi**Termiz davlat universiteti*xaydarovam@gmail.com*Termiz, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: nutq, nutqning sofligi, dialektizm, barbarizm, vulgarizm, konselyarizm, parazit so'zlar, jargon va argo.

Annotatsiya: Mazkur maqolada nutqning kommunikativ sifatlaridan biri hisoblangan soflik sifati va uni buzuvchi omillar (dialektizm, barbarizm, vulgarizm, konselyarizm, parazit so'zlar, jargon va argo) hamda ularning badiiy va so'zlashuv uslubdagi ahamiyati to'g'risida so'z boradi.

ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА КОММУНИКАТИВНОГО КАЧЕСТВА РЕЧИ**Муборак Хайдарова***Филология преподавание языков: узбекский язык студентка*xaydarovam@gmail.com*Термизский государственный университет**Термиз, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: речь, чистота речи, диалектизм, варваризм, вульгаризм, канцеляризм, паразитные слова, жаргон и аргю.

Аннотация: В данной статье рассматривается качество чистоты, являющееся одним из коммуникативных качеств речи, и факторы, его искажающие (диалектизм, варварство, вульгаризм, канцеляризм, паразитические слова, жаргон и сленг), а также их значение в художественном и разговорном стиле.

Kirish. Nutq tildagi mavjud tafakkurning bayoni hamda kommunikatsiyada muhim ahamiyatga ega bo'lgan vositadir. U tilning aloqa quroli sifatida nutqda qo'llanishi orqali yuzaga chiqadi. Shu bois nutqning to'g'ri va g'alizliklarsiz ishlatilishi o'z-o'zidan tilning ahamiyatiga ta'sirini o'tkazmay qo'ymaydi.

Tilshunoslikda ham aynan nutqning adabiy til me'yorlariga muvofiq tarzda ifoda etilishi hamda madaniy nutqning 7 ta kommunikativ sifati(to'g'rilik, aniqlik, soflik, mantiqiylik, jo'yalilik, boylik, ta'sirchanlik)ni o'z ichiga olishi tilning jozibasini va mazmun-mohiyatini to'g'ri anglashimizga imkon yaratadi. Bu borada jahon lingvistikasida EZvereva, N.Levchayeva, A. Zelenin va D.Rudnev kabi olimlarining tadqiqotini o'rgansak, o'zbek tilshunosligida N.Mahmudov A.Omonturdiyev, B.Umurqulov; S.Ashirboyev lar bu haqda qimmatli qarashlarini berib o'tgan.

Nutqimizdagi yetti kommunikativ sifat haqida so'z yuritar ekanmiz, ularning orasidan nutqning sofligi sifatini alohida e'tiborga olishimiz maqsadga muvofiqdir. Boisi nutqimizda uchrab turuvchi yot unsurlar, odob-axloq me'yoriga zid so'zlar hamda mazmunan "quruq" so'zlar nuqning sofligiga putur yetkazadi va bu so'zlar tilshunoslik nuqtayi nazarida quyidagilar hisoblanadi:

Dialektizm – sheva(lahja)ga xos bo'lgan so'z, ibora va birikmalar. Aslida olganda dialektal birliklar o'zbek adabiy tilining ichki boyish manbalaridan biri hisoblansa-da, uning badiiy nutqda qo'llanishi tabiiy jarayon bo'lib, biroq adabiy normaga nomuvofiq tarzda, keraksiz o'rinlarda qo'llanishi qaysidir ma'noda nutqning sofligiga putur yetkazadi. Masalan, “-voy, inakni o'ldirdingiz-e, -deb yig'lab yubordi xotini”(Sh.Xolmirzayev) jumlasida “inak” so'zi Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatining ayrim hududlari kishilari uchungina ma'lum bo'lgan so'z (Üläriñ üjidä žüväñä (ho'kiz), inäk (sigir), bizäv, tākälär žüdäjäm köp- Ularning uyida juvana, inak, buzav, takalar judayam ko'p yoki Dädäm vä päččäm žänlilärgä žüdä qiziqışädi – Dadam va pochcham jonlilarga (uy hayvonlariga) juda qiziqishadi) hisoblanib adabiy tilda “sigir” semasini ifodalaydi, bil'aks bu so'zni og'zaki yoki yozma nutq tarkibida qo'llash bu etnik hududga mansub bo'lmagan o'quvchi uchun noaniqlikni yuzaga chiqaradi. Shuningdek, quyidagi jadval orqali aynan o'zbek

adabiy tilidagi hamda Surxondaryo viloyati hududagi ayrim soʻzlar oʻrtasidagi tafovutni aniq va ravshan koʻrishimiz mumkin:

SHEVADA	ADABIY TILDA
janda	eski kiyim
gʻoʻra	pishmagan meva
kallapoʻsh	bosh kiyim
tagʻin	yana
govmish	sigir
supra	dasturxon
tov	togʻ

Adabiy nutqda adabiy tilga xos boʻlmagan soʻzlardan, yaʼni dialektlar badiiy asar tilida maʼlum bir estetik vazifada ijodkorning maqsadi va niyatini amalga oshirishda tasviriy vosita sifatida qoʻllansa-da, madaniy nutqning sofligiga putur yetkazadi.

Varvarizm (lotincha: “barbarismus”- chet ellik, ajnabiy) - oʻzbek tiliga oʻzlashmagan va adabiy til tarkibiga singmagan xorijiy soʻzlarni talqin etish mumkin. Biroq bu masala yuzasidan tilshunos olim N.Mahmudov varvarizmlar hamda tilimizga oʻzlashgan va lugʻatlarimiz tarkibiga kirgan boshqa soʻzlar chet tilidagi soʻzlarni farqlashning muhim ekanligini taʼkidlaydi. Bu yerda stol, stul; manfaat, tabiat; bahor, hamdard kabi oʻzlashgan soʻzlar hamda “кароче”, “остановка”, “ванше”; “picnic”, “like” kabi hali tilimizning lugʻat tarkibiga kirmagan soʻzlarni toʻgʻri farqlay bilish nazarga tutilgan.

Masalan, “Malades, oʻzimizning onamiz! Bormisiz, enajon!”, “Menimcha, Ergashev nenormalniy odam, uni jinnixonaga topshirish kerak”. Oʻ.Hoshimovning “Ikki karra ikki besh” qissasidan olingan yuqoridagi parchada ham varvarizmlardan salmoqli ravishda foydalanish davomida oʻzga yerga xos boʻlgan rasm-odatni koʻrsatib berish baravarida soʻzlovchi nutqining adabiy til qoidalariga mos emasligining guvohi boʻlishimiz mumkin. . Hozirgi kunda talabalar nutqida: “Men bugun treddaman (diqqat markazdaman), Hamma ishni ok (zoʻr) qildim. Skrimin qiling (rasmga oling. Sher (ulashmoq) qilib yuboring” kabi jumlar varavarizmning yorqin namunasi boʻla oladi. Shuni ham taʼkidlash joizki, badiiy asarlarda muallif ayrim oʻrinlarda milliy yoki mahalliy kolorit berish maqsadida, qahramonlarning qayerlik ekanligiga ishora qilishda dialektizm va varvarizmlardan foydalanish holati uchraydi. Birgina “Ikki eshik orasi” asaridagi bosh qahramonlar nutqi orqali ularning aynan voha hududidan ekanligini anglasak, asardagi janggohdagi shifokor yoki militsioner nutqidan ularning rus mullatiga mansub ekanligining guvohi boʻlishimiz mumkin.

Vulgarizm (lotincha: "vulgaris" - qo'pol, dag'al) – adabiy tilga xos bo'lmagan qo'pol so'zlar, so'kinish, qarg'ish va haqoratlarni ifoda etuvchi so'z va birikmalardir. Bu borada salmoqli izlanishlar olib borgan olim B.O'rinboyev vulgarizmlarni qo'llanish doirasi va mazmuniga ko'ra 3 guruhga ajratgan: 1. Kishilarning xarakteri va mijozidagi kamchiliklarni ifodalovchi vulgarizmlar (tulki, latta, xotinboz, yuzsiz);

2. Kishining tashqi kamchiligini ko'rsatuvchi vulgarlar (maymoq, kal, ilonbosh, simyog'och);

3. So'kish, koyish mazmunini ifodalovchi vulgarizmlar (badbaxt, nonko'r, ahmoq, kasofat).

Bunday so'z va so'z birikmalaridan foydalanish nafaqat madaniy nutqning sofliqini buzadi, balki axloqiy me'yorlarga zid ekanligi bilan ham tinglovchiga xush kelmaydi. Misol uchun: "Endi Qizilsoyga borsang, o'ldiraman, juvonmarg" (E. A'zam). Shunga qaramasdan, vulgarizmlardan badiiy adabiyotda ma'lum maqsadlarda foydalanish holati uchraydi: 1.-Dadamga tegmang! – daf'atan kelgan hayqiriqni to'xtata olmadi. -Jim bo'l, ilonvachcha!.... Ushbu jumlada o'quvchiga muallif jarayondagi tomonlarning o'zaro subyektiv (negativ) munosabatlarning mavjudligiga ishora qiladi. Yoki: Chechasini bilmaydi bu xumpar, bilsa, uni ham aytardi. Xumpar so'ining izohiga e'tibor beradigan bo'lsak: "Hazil aralash yengil so'kish shakli ("qurg'ur", "shayton", "shumtaka" va hk.)"ni ifodalab, Tohir Malikning "Shaytanat" asaridan keltirilgan haqorat so'zlar badiiy asar tilining qiymatini belgilash qatorida asarning emotsional-ekspressivligini oshirgan.

Parazitizm – og'zaki nutqda doimiy uchrab, inson leksikasida muqim o'rnatilib qolgan, jummalarni bog'lash uchun tez-tez qo'llansa-da, hech qanday semantik ma'no ifodalamaydigan so'zlar (distruktiv so'zlar, "ishlatilmaydigan so'zlar" deb ham yuritiladi). Bunday so'zlar nuq uchun tasodifiy, nozarur va keraksiz omil sifatida baholanadi.

Masalan, "Xo'jayin, shu, shu, desangiz. Shu... bizdi moshina dovonning naryog'ida, shu, radiator teshilib, shu, qolib ketibdi" (Said Ahmad). Ushbu jumlada "shu" so'zining 5 o'rinda hech qanday ma'no ifodalamay takror kelishi bir tomondan so'zlovchining nutqiy malakasining yetarli emasligini isbotlashda xizmat qilsa, boshqa tomondan tinglovchiga erish tuyiladi. Shuningdek, bu masala yuzasidan A.M.Shofqorov nutqda parazit so'zlarning uchrab turishiga quyidagilarni dalil qilib keltiradi: 1) lug'at boyligining kamligi; 2) diqqatni jamlash qobiliyatining pastligi; 3) so'zlovchining qattiq hayajon yoki stressdagi holati va hokazo. Shuningdek, bu masalaga badiiy asarlar misolida yondashadigan bo'lsak, "Ot kishnagan oqshom" qissasida kapitan Ro'ziyevning dialoglarda "xo'sh, xo'sh" so'zini qo'llash orqali amalidan kelib chiqib, uning bilim saviyasini pastligi, ya'ni shunday yuqori mansab egasi bo'lib turib, so'zga chechanmasligi, so'z qo'llashda ortiqchalikka yo'l qo'yganligini bilish mumkin. Muallif asarlarida har bir detalga, so'zga o'ziga xos vazifa yuklaydi. Uzundan uzun ta'riflab o'tirmaydi-da, birgina so'z orqali qahramonini

qanchalik nutqiy madaniyatga, lugʻat fondining qanchalik boyligiga ega ekanligini aynan “ishlatilmaydiga” soʻzlar, yaʼni parazitizmlar orqali yoritib beradi.

Konselyarizm – korxona, tashkilot va muassasa kabi qonuniy ish yuritish jarayoniga xos boʻlgan hamda rasmiy ish qogʻozlarida uchraydigan soʻz va birikmalar. Ushbu soʻz va birikmalardan, asosan, rasmiy uslubda keng foydalanish oʻrinli va maqsadga muvofiq. Biroq bu turdagi soʻzlardan norasmiy nutqda foydalanish nuqtani “jonsiz” qilib qoʻyish xususiyatiga ega va buni Abdulla Qahhorning “Notiq” hikoyasi misolida koʻrishimiz mumkin: “oʻrtoq rafiqam, ijizat berasiz, xushchaqchaq hayotimizni sharaf bilan davom ettirib, oilaviy burchimizni namunalik bajarib kelayotganimizga bir yil toʻlgan kunda sizni bevosita tabrik qilishga... Bundan 365 kun muqaddam siz bilan biz oʻz hayotimizda qatʼiy burilish yasab, zoʻr sinovlar sharoitiga bevosita qadam qoʻydik. Ilgarigi vaqtda faqat erkak, endilikda esa ham erkak, ham xotin boshchilik qiladigan oila masalasi oʻzingizga maʼlum boʻlganligi uchun bunga keng ravishda toʻxtab oʻtirishni lozim koʻrmayman”. Yuqoridagi parchadagi idoraviy soʻz va iboralar bir tomondan nutqning qaysidir maʼnoda “boʻrttirib” yuborilganligini hamda notabiiy ekanligini koʻrsatsa, boshqa tomondan personajning maʼdaniy-maʼnaviy saviyasini kinoyaviy taʼkidlashda xizmat qilgan. Bu masala yuzasidan A.Qahhorning oʻzi ham “Quyushqon” asarida quyidagilarni yozadi: “Hozirgi vaqtda tilimizning boyligini, uning qochiriqlarini oʻrganishga eringan, soʻz sanʼatiga hunar deb emas, kasb deb qaraydigan, bisotidagi bir hovuch soʻzni yillar davomida aylantirib kun koʻrib yurgan bir turkum qalam ahlining “faoliyati”, chala mulla baʼzi olimlarning “ilmiy xulosa”lari natijasida ajib bir til bunyodga kelgan. Bu tilda hech kim gapirmaydi, zotan, gapirish ham mumkin emas, faqat oʻqib, yozib berish mumkin... bu til har qanaqa fikrga kafan kiygizadi, har qanaqa oʻynoqi mazmunni taxtaga tortadi, har qanaqa lektorni gʻurbatning uyasiga, har qanday auditoriyani oʻlik chiqqan hovliga aylantiradi ”.

Jargon (fransuzcha: “jargon” - safsata) – ayrim kasb egalari yoxud guruh vakillarining oʻzlari oʻylab topgan “til” boʻlib, ular uchungina tushunarli boʻlgan terminlar. Jargonlar qaysi ijtimoiy guruh orasida yuzaga kelgan boʻlsa, deyarli faqat shu guruh vakillari uchun tushunarli boʻladi, shu toifadagilarning vaziyat, sharoit taqozasiga koʻra boshqalardan yashirin tutiladigan maqsadlariga xizmat qiladi . Z.Rahimova Tilshunoslikda jargonga beriladigan baho munosabatining alohida kategoriya sifatidagi oʻz oʻrniga egaligi, bahoning tildagi ahamiyati tilning turli birliklari doirasida oʻz aksini topishi bilan belgilanishi hamda soʻzlovchining ehtiyoji va qiziqishlarini qondirish koʻnikmasiga ega boʻlgan narsa-predmet, harakat-holatning mohiyat darajasini soʻzlovchi tomonidan nutq jarayonida aniqlash natijasida hosil boʻluvchi jarayon boʻlib, uning natijasida salbiy yoki ijobiy baho anglashilishi haqida munosabat bildirgan .

Masalan, pul soʻzining oʻgʻrilar tilida “mullajiring” shaklida ishlatilishi (Mullajiring jiringlamasa, Odam dirrnglamas .); yangi kelgan askarlarning harbiy xizmatchilar nutqida “dux”

deya nomlanishi; qalin do'stlar birikmasining yoshlar o'rtasida "jigar" tarzida qo'llanishi yoxud talabalar nutqida eng ko'p tarqalganlari: "yopmoq"(sessiyani tugatmoq), "chizmoq"(qochmoq), "quloq"(chaqimchi), "vatan" kabilar fikrimizga yorqin dalil bo'la oladi. Shuningdek, Nurmonov ham aynan o'zbek tilida yoshlar jargon, harbiylar jargon, sportchilar jargon keng tarqalganini alohida ta'kidlagan .

Argon (fransuzcha: "argot"- qulflangan) – biror ijtimoiy guruh tomonidan yaratilgan sun'iy so'z va so'z birikmalari. Argonlar ayrim kasb yoki soha vakillari uchun tushunarli bo'lish jihati bilan jargonlarga o'xshasa-da, ulardagi eng muhim farqli jihat – argoizmlarda maxfiylikning ustun kelishi. Tilshunos olim Roberining kichik lug'atida ham argo atamasi umum qo'llaniladigan atama sifatida "jinoiy muhit tili", lingvistik nuqtayi nazarda esa "ma'lum ijtimoiy guruh tomonidan ishlatiladigan texnikaga oid bo'lmagan leksika" sifatida berilgan, shuningdek bu so'zning etimologik kelib chiqishi ham "qora niyatli kishilar jamoasi" sifatida izohlangan.

Misol uchun birgina "Shaytanat" asari tahlili orqali ko'plab argonlarning izohiga to'xtalishimiz mumkin: 1."Akamiz villadan qaytibdilar, ancha ozib qolibdi"(T.Malik "Shaytanat") mazmunidagi jumlasida ham aynan "villa" so'zi orqali "qamoqxona" ning nazarda tutilishi yuqoridagi fikr asosida o'z aksini topadi; 2."Ali o'g'rining ishi hech mahal Vali o'g'rining ishiga o'xshamaydi. Ba'zan jinoyatchilarning o'zlari militsiyaga yordam berishadi: uslub kimniki ekanini aytishadi. Qora dorining topilishi ham shunday " xolis xizmat " oqibati bo'lishi mumkin", ushbu jumladagi "xolis xizmat" birikmasi orqali asar qahramoni jinoyatchilar o'zlarining ichidan militsiyaga yordam beruvchilar ishini nazarda tutganining guvohi bo'lishimiz mumkin. Biroq shuni ham ta'kidlash joizki, badiiy adabiyotda argo va jargonlarning qo'llanilishi tilning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga, personajlarni individuallashtirish, ijtimoiy guruhlarni aniqlash, shuningdek, muayyan davr va madaniyatni tasvirlashda alohida o'rin tutadi. Argo va jargonlarning ishlatilishi, ayniqsa, yosh avlod va xalq madaniyatining turli qatlamlariga xos xususiyatlarni badiiy tasvirlashda muhim ahamiyatga ega. Ular asarlarning tilini nafaqat boyitadi, balki yozuvchi va o'quvchi o'rtasida kuchli aloqani shakllantiradi.

Xulosa shuki, Nutqimizdagi yetti kommunikativ sifatiga putur yetkazuvchi omillardan biri dialektizmlar adabiy normaga yot bo'lgan belgilarga ega bo'lgani holda so'zlashuv uslubida suhbatning darajasiga o'z ta'sirini ko'rsatsa-da, haddan tashqari normativlik tilning sun'iyliги hamda standartlashuviga sabab bo'lib, qaysidir ma'noda til leksikasining qashshoqlashishiga olib kelish ehtimoldan xoli emas. Ushbu lingvistik birliklar badiiy asarlarga yanada realistik va jonli ohang bag'ishlab, o'quvchini qahramonlarning ichki dunyosiga yaqinlashtiradi. Varvarizmlarning yoshlar nutqidagi globalizatsiyasi yashash tarzi hamda texnologik rivojlanish tendensiyasi bilan bog'liq kechadi, bunda tilning sofliğini saqlash uni korpuslashtirish masalalariga kengroq e'tibor bilan amalga oshishi mumkin, vulgarizmlarning esa badiiy adabiyotlarda qo'llanishi jamiyat

hayotiy elementlarining ajramas qismi sifatida namoyon bo'lishi joiz deb hisoblaymiz. Jargonlar nutqning boshqa turlarida: badiiy adabiyotda, ommaviy axborot vositalarida, siyosatchilar, harbiylar, o'qituvchilar va talabalar nutqida ham uchraydigan lug'aviy birliklar sifatida qo'llanuvchi birlik bo'lib, badiiy matnlarda adabiyotning hayot haqiqatlariga mosligini ta'minlasa, lingvopragmatik, uslubshunoslik, lingvopoetik jihatdan tadqiq qilish badiiy asarning mazmun-mohiyatini ochish, asar qahramonlarining hayotdagi o'rnini belgilash, turmush-tarzini izohlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi //Toshkent: Nodirabegim. – 2021.
2. Bekpo'lat U. et al. Nutq madaniyati va notiqlik. – 2024.
3. DialectCorpora.uz, Qipchoq dialekti bo'yicha "Inson" mavzusidagi suhbat-hasbi hol janridagi matn. Surxondaryo viloyati, 2025. (murojaat sanasi: 12.11.2025).
4. Levchayeva N. V. Communicative qualities of speech and their systematic relationships //Filologicheskie nauki. Voprosy teorii i praktiki. – 2018. – T. 2. – C. 103-106.
5. Mahmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati //T.: A. Navoiy nashr. – 2007.
6. Mahmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati //T.: A. Navoiy nashr. – 2007.
7. Nurmonov, A. O'zbek tilining ijtimoiy lingvistik o'rganilishi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2018.
8. O'zbek tili multikorpusi. Uzcorpora
9. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
10. Omonturdiyev A. J., Abduraimova S.H. o'zbek nutqi madaniyati va uslubiati // Toshkent-2016. – 2016.
11. R.Rasulov bn Q.Mo'ydinov o'qituvchi nutqi madaniyati va notiqlik san'ati //Fan va texnologiyalar. – 2020.
12. Saidova N. A. O'zbek badiiy asarlarida argo va jargonlarning qo'llanish xususiyatlari //o'zbekiston davlat jahon tillari universiteti konferensiyalari. – 2024. – C. 916-919.
13. Shofqorov A. M., Yo'ldosheva N. S. Nutqda qo'llanadigan parazit so'zlar va ularni bartaraf etish //Academic research in educational sciences. – 2022. – T. 3. – №. 3. – C. 771-774.
14. URL: <https://uz.wiktionary.org/wiki/xumpar>.
15. Xolova M. A. URL: <https://dialectcorpora.uz> Rahimova Maysara Baxtiyor qizi bilan suhbat.
16. Z.Rahimova. O'zbek tilida jargonlarning lingvopragmatik tadqiqi. 10.00.01. O'zbek tili. F.f.f.d. (PhD) Avtoref. Termiz: 2024.

17. Zelenin A., Rudnev D. Urodlivij varvarizm (iz istorii glagol'noj svjazki VYGLJADET'v russkom jazyke) //Russkij jazyk v shkole. – 2015. – T. 7. – С. 58-62.
18. Зверева Е. Н. Основы культуры речи. Теоретический курс. – 2009.